

**Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim imkoniyatlari**

**f.f.f.d (PhD) Sobirova Mahmudaxon Nematjon qizi**

**Ijtimoiy gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrasi v.b dotsenti**

**Annotatsiya:** Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasida belgilangan talablardan anglash mumkinki, o'qituvchining kasbiy kompetentligi, kasbiy maxorati, o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash, o'quvchilarning o'zlashtirishiga qulay sharoitlar yaratish masalasi ilgari surilgan. YE.V.Bondarevskayaning fikriga ko'ra, shaxsga yo'naltirilgan o'quv jarayonini qurishda mazmunga alohida e'tibor qaratish lozim

**Kalit so'zlar:** Shaxsga yo'naltirilganlik, kasbiy, ijtimoiy, samarali muloqot shakllari, tarbiyaning murakkab tabiati, ijtimoiy muhit, psixologik omillar.

**Аннотация:** из требований, изложенных в концепции личностно-ориентированного образования, можно понять, что выдвигается вопрос о профессиональной компетентности, профессиональном мастерстве педагога, совместной работе с учащимися, создании благоприятных условий для усвоения учащимися. E.V.По мнению Бондаревской, особое внимание следует уделять содержанию при построении личностно-ориентированного процесса обучения

**Ключевые слова:** личностная ориентация, профессиональные, социальные, эффективные формы общения, сложный характер воспитания, социальная среда, психологические факторы.

**Annotation:** from the requirements set out in the concept of personality-oriented education, it can be understood that the issue of professional competence of the teacher, professional competence, working in cooperation with students, creating favorable conditions for student assimilation has been put forward. E.V.According to bondarevskaya, special attention should be paid to the content when building a person-oriented educational process

**Keywords:** personality orientation, professional, social, effective forms of communication, complex nature of upbringing, social environment, psychological factors.

**Kirish.** Ta'lim jarayoni esa o'quvchilarni bilim olish faoliyatini kuchaytirish, takomillashtirish, fikrlash, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, dialektik- dunyoqarash va insonparvar-estetik madaniyatini rivojlantirish va ta'lim (tarbiya) malakalarini takomillashtirish vazifalarini bajaradi. V.V.Serikovning fikriga ko'ra, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni an'anaviy ta'limdan farqlaydigan protsessual xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

- o'quv faoliyatini o'yin, hayotiy vaziyatlar, ijtimoiy va texnik ijod strukturasi kiritilishini ko'zda tutuvchi kontekst ta'limning ustunligi;
- o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi dialog, yechimni izlash va uni anglash;
- jarayonga yo'nalganlik (faoliyat usuli, uslubi), qadriyatlarni umumiy boshdan kechirish;
- individuallik, shaxsiy fikrga huquqini tan olish bilan muloqotning insonparvarligi;
- hamkorlik munosabatining ustunligi, pedagog haqiqiy hayotiy muammolarni birgalikda yechishga, o'zini-o'zi o'zgartirishga tayyor [46, 146-148].

Tahliliy mulohazalar va nazariy fikrlar, tamoyillar va qonuniyatlar o'rganilib, tadqiqot ishimizning boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-5, ISSUE-10

modeli ishlab chiqildi. Bu modelning maqsadi shundan iboratki, bunda yuqori darajali kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan o'qituvchi tayyorlash ko'zda tutilgan. Model bir qancha xususiyatlarni o'z ichiga oladi: Birinchisi. Ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish ta'lim natijasiga urg'u beradigan yondashuvdir. Bunda ta'lim natijasi o'zlashtirilgan axborotlar yig'indisi emas, balki shaxsni turli muammoli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatidan iborat bo'ladi.

Ikkinchisi. Kasbiy kompetensiyalar hozirgi kunda innovatsiyalarni tatbiq etish uchun kreativlikka bog'liq bo'lgan innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslangan kasbiy kompetentli o'qituvchi faoliyatidagi ijodiy qobiliyatdir.

Uchinchisi. Kasbiy kompetensiyalarni «Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ona tili o'qitish metodikasini o'qitishning modul-reytingli tizimidan foydalanish» maxsus kursi asosida rivojlantirish jarayoni olib boriladi.

Bunday funksiyalar sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: motivatsiya (o'z faoliyatini qabul qilish va asoslash); vositachilik (xulqning tashqi ta'sirlari va ichki impulslariga nisbatan); kolliziya (borliqning yashirin qarama-qarshiliklarini ko'rish); tanqid (tashqi taklif etiladigan qadriyatlar va shakllarga nisbatan); refleksiya (“Men” barqaror obrazini ongda qurish va ushlab qolish); mazmunli ijod (shaxs tomonidan mazmunlar iyerarxiyasini doimiy aniqlashtirish va tekshirish); yo'nalganlik (shaxsga yo'naltirilgan olam obrazi – individual dunyoqarashni qurish); ichki olamning avtonomligi va barqarorligini ta'minlash; ijodiy qayta o'zgartiruvchi (ixtiyoriy shaxsiy ahamiyatli faoliyatning ijodiy xususiyatini ta'minlash); o'z-o'zini amalga oshirish (o'zining “Men” obrazini atrofdagilar tomonidan tan olinishiga intilish); shaxsiy intilishlariga muvofiq ma'naviylik va hayot faoliyati darajasini ta'minlash (hayot faoliyatini utilitar maqsadlarga qaratishning oldini olish) [46]. Barcha shaxsiy sifatlarni shartli ravishda tayanch funksiyalarning uch guruhiga ajratish mumkin: mas'uliyat, refleksiya va o'z-o'zini amalga oshirish.

Mazkur funksiyalarning to'liqligi, ularning o'quv jarayoni subyektlari faoliyatida taqdim etilganligi ta'lim jarayoni o'z faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan darajasiga erishganligi, ya'ni shaxsga yo'naltirilgan bo'lganligidan guvohlik berishi mumkin. V.V.Serikov shaxsga yo'naltirilgan ta'lim funksiyasi muayyan sifatga ega shaxsni rivojlantirishdan (an'anaviy ta'lim bilan solishtirganda) emas, balki ta'lim jarayoni subyektlarining shaxsiy funksiyalarining to'liq namoyon bo'lishi va rivojlanishi uchun sharoitlar yaratishdan iborat deb hisoblaydi. “Shaxsiy funksiyalar” tushunchasi pedagogikaga mazkur muallif tomonidan kiritilgan bo'lib, ularni u «insonning “shaxs bo'lish” ijtimoiy buyurtmasini amalga oshirishini ifodalovchilar» deb ta'riflaydi O'quvchilarning bilimlarni egallashlaridagi qiyinchiliklar va o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlanmaganligini ko'rsatuvchi bir qator omillar mavjud. Aytilgan subyektiv shaxs sifatlarini qisqacha ochib beramiz, ularning kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga ta'sirini aniqlaymiz.

O'qituvchining psixofiziologik dastlabki shartlariga A.K.Markova [95], L.M.Mitina [99] va boshqalarning fikrlariga ko'ra, quyidagilar kiradi: intellektual rivojlanishning optimal darajasi, tafakkurning moslashuvchanligi va konvergentligi, faollik, javob ta'sirining yuqori sur'ati, labillik, emotsional barqarorlik, o'z-o'zini boshqarishning yuqori darajasi va boshqalar. Ular pedagog faoliyatining samaradorligini va uning subyektiv sifatida o'zini qulay his qilishini ta'minlaydi [99]. I.A.Zimnyaning fikriga ko'ra, pedagog shaxsining asosiy subyektiv sifatlaridan biri kasbiy-pedagogik faoliyatning cho'qqisiga erishishning muhim omili bo'lgan – “shaxsiy yo'nalganlik” hisoblanadi [35]. Psixologik nuqtai nazardan shaxsning yo'nalganligi – “bu joriy vaziyatlardan erkin barqaror, insonning dunyoqarashi ifodalanadigan, inson faoliyatini uning qiziqishlari, moyilliklari,

ishonchi va idellariga mos ravishda yo‘naltiradigan motivlar yig‘indisidir” [110, 230-b.]. Mazkur nisbatan umumiy psixologik muammo (shaxsning yo‘nalganligi) doirasida tadqiqotchilar A.A.Bodalev [61], A.K.Markova [94], V.A.Slastenin [48] va boshqalar tomonidan, o‘qituvchi shaxsining pedagogik yo‘nalganligi, uning psixologik mazmuni, rivojlanish sharoitlari va dinamikasi o‘rganiladi.

Tadqiqot ishimizda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limga o‘tishning asosiy sabablari deb quyidagilarni tanlab oldik:

- bo‘lajak mutaxassis yetishishining insonparvarlik maqsadlari;
- kasbiy ta‘limning ilgarilovchi xususiyati;
- bo‘lajak mutaxassisning kasbiy muhim sifatleri rivojlanishining zarurati (mustaqillik, mas‘uliyatli qarorlar qabul qila olish, ixtiyoriy ishga ijodiy yondashuv, kommunikativlik, hamkorlik qilish qobiliyati, ijtimoiy hamda kasbiy mas‘uliyat va h.k.);
- o‘z-o‘zini kasbiy amalga oshirishni ta‘minlash va kelgusi ijodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlash.

M.M.Levina shaxsga yo‘naltirilgan kasbiy ta‘lim jarayonini, aynan mazkur jarayon shaxsni kasbiy faoliyatga integratsiyasi asosida bo‘lajak pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantiradi va bunda ta‘lim jarayoni samaradorligining meyoriy talablarini saqlab qoladi deb ta‘kidlaydi. Shu bilan birga ta‘lim maqsadlarining yaxlitligi: talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga axborot-faoliyatli va shaxsiy tayyorgarligi amalga oshiriladi. Talabalarning o‘quv faoliyatlari bilish faoliyatiga undovchi ichki ehtiyoj, motivga aylanadi. O‘quv hatti-harakatlari bilish motivi funksiyasiga ega bo‘ladi, shaxsning kognitiv va kasbiy yo‘nalganligining rivojlanishi vositasi hisoblanadi, talabalarning kasbiy rivojlanish va o‘z-o‘zini rivojlantirish shartlarini aks ettiradi [39]. Shuning uchun, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonini loyihalashda nafaqat material va uni taqdim etish usuli, balki o‘rganilayotgan material shaxsning qadriyatli-mazmunli izlanishlari uchun o‘ziga xos imkoniyat sifatida xizmat qiladigan yaxlit vaziyatni ham ishlab chiqdik.

Shaxs faqat bilimlarni yoki o‘quv vazifasini emas, balki aynan o‘zining hayotiy vaziyatini baholashini ta‘kidlash zarur. Bilim va o‘quv vazifalari mazmunga ega bo‘lishi uchun esa, pedagogik shaxsning hayotiy vaziyatiga kirishi lozim. Shaxsiy tajriba o‘quv-tarbiya jarayonida shaxsiy qadriyatlar va mazmunga aloqador bo‘lgan haqiqiy munosabatlar, kechinmalar davomida subyektning o‘zi tomonidan talab etilishi va rivojlantirilishi mumkin. Bu subyektning o‘ziga xos shaxsiy rivojlantiruvchi ta‘lim vaziyatiga kirib borishini nazarda tutadi. A.V.Zelensova unda quyidagi tarkibiy elementlarni ajratadi:

- shaxsning hayotiy muammosi yoki kolliziyani, hayotidagi ayrim hodisalarni;
- pedagogni – ta‘limning o‘ziga xos mazmuni sifatida shaxsiy tajriba tashuvchisini;
- mustaqil shaxsiy rivojlanish ehtiyojiga ega va bunga mos ravishda o‘zini amalga oshirishni istagan sohada shaxsiy tajribaning yetishmasligini his qiluvchi o‘quvchini;
- shaxsiy ahamiyatli faoliyat uni bajarishda tarbiyalanuvchining shaxsiy funksiyalari talab etiladigan – shaxsga yo‘naltirilgan vaziyati;

vaziyatning protsessual komponentlari – shaxsiy kontekstdagi turli predmetli tabiatga ega vazifalar, shaxsiy tajriba tashuvchisi bilan dialoglar tizimi, shaxsiy o‘z-o‘zini amalga oshirish ijtimoiy makonining o‘yinli immitatsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar ro'yhati**

1. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий ривожлантиришнинг назарий методик асослари. Дисс. ... пед. фан. докт. – Т.: 2007. – 315 б.
2. Дмитриева, Н. Формирование профессиональной компетентности будущего учителя начальных классов сельской школы // Дисс... канд.пед.наук / Н.Л.Дмитриева. - Великий Новгород, 2004. - 177с.
3. Задорожная, А.В. Формирование профессиональной компетентности будущих преподавателей-лингвистов в условиях современного вузовского образования: Дисс...канд.пед.наук / А.В.Задорожная. Ставрополь, 2004. - 176с.
4. Зеленцова, А.В. Личностный опыт в структуре содержания (теоретический аспект): Автореф. ...канд.пед.наук / А.В.Зеленцова. - Волгоград, 1996. - 24.
5. Алексеев Н.А. Профильное обучение в контексте личностно-ориентированного образования / Н.А.Алексеев. - Тюмень: Изд- во ЗАО «Легион-Групп», 2005. -250с.
6. Ахулкова, А.И. Технология формирования профессиональной компетентности будущих преподавателей педагогического колледжа : Дисс... канд.пед.наук / А.И.Ахулкова. - Курск, 2004. - 197с.
7. Kimsanova G.A., Alieva R.A. Influence of turkesterone and ecdysterone on alpha-amylase activity in growing rats. Molodoy Ucheny, 2020.